

MUZEY – TARIX VA MADANIYAT XAZINASI

Mamadaliyeva Mahliyo

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarning tarixiy va madaniy ahamiyati, ularning xalq xotirasini saqlashdagi roli, yosh avlod tarbiyasidagi ta'siri hamda zamonaviy muzeylar faoliyati yoritilgan. O'zbekiston hududidagi mashhur muzeylar misolida milliy merosimizning boyligi va uning asosiy xarakteristikalarini ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Muzey, tarixiy meros, madaniyat xazinasini, tarixiy xotira, eksponat.

Insoniyat tarixini o'rganish, o'tmishni anglash va qadim zamonlarning hayotini saqlash bugungi avlod uchun muhim vazifa. Bu yo'lga eng katta yordamchi – tarixiy muzeylardir. Tarixiy muzeylar – bu o'tmishni “ko'rish”, eshitish va his qilish imkonini beradigan noyob maskanlardir. Unda qadimiy yodgorliklar, urushlar, inqiloblar, davlatlar va buyuk shaxslar haqida noyob eksponatlar saqlanib qolgan. Muzey – bu insoniyat tarixini, madaniyatini, ilmiy fanini va san'atini o'zida mujassam etgan muhim madaniy muassasadir. U yerda qadimiy yodgorliklar, san'at asarlari, tarixiy hujjatlar, noyob eksponatlar va boshqalar saqlanadi. Har bir muzey – bu o'ziga xos bilim va madaniyat manba'i bo'lib, odamlarni o'tmish bilan tanishtiradi. Muzeylarning turli xil bo'lishlarga ega: tarixiy muzeylar, san'at muzeylari, tabiiy fanlar muzeylari, texnika muzeylari, adabiy-memorial muzeylar va boshqalar. Masalan, O'zbekistonning eng mashhur muzeylaridan biri – Temuriylar tarixi davlat muzeyi bo'lib, u Amir Temur va Temuriylar davriga oid ko'plab noyob eksponatlarni o'z ichiga oladi. Muzeylarning asosiy vazifasi eksponatlarni saqlash, balki ta'lim va tarbiya markaz sifatida ham xizmat qiladi. O'quvchilar, talabalar va tadqiqotchilar muzeylardan ko'plab ma'lumotlar olishadi, ilmiy izlanishlar olib borishadi. Muzeyga tashrif buyurish orqali inson o'z bilimini boyitadi, tarixni tafakkur bilan kengaytiradi. Bugungi kunda ko'plab muzeylar zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv ko'rgazmalarni tashkil etmoqda. Virtual muzeylar ham keng ommalashib bormoqda, bu esa dunyo bo'ylab odamlarning muzeylarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Tarixiy muzey – bu insoniyatning turli davrlardagi hayoti, urf-odatlari, davlat boshqaruvi, urushlar, ijtimoiy hayot va buyuk shaxslar haqida eksponatlar saqlanib qolgan va namoyish qilinadigan muassasadir. Bu muzeylardagi ko'plab qadimiy asarlar bo'lib:

- Qadimiy qurol-aslahalar

- Tangalar, qadimiypulbirlklari
 - Keramikavametallbuyumlar
 - Harbiyliboslarvabelgilar
 - Davlathujjatlari, bayroqlar
 - Mashhurtarixiyshaxslarportretlarivabuyumlari
- Arxeologikqazilmalardantopilganyodgorliklar

Tarix – bu xalq xotirasi, insoniyat faolligining bebahoyligidir. Bu xotirani saqlab qolish,

uni kelajak avlodga yetkazish uchun eng shonli va hayotiymanbabu – muzeylar, ayniqs tarixiy muzeylardir. Tarixiy muzeylar – bu ajdodlarimizdan qolgan yodgorliklar, qadimiy buyumlar, hujjatlar, suratlar, tangalar, qurol-aslahalar va boshqalar o'plab tarix guvohlarini jamlagan muqaddas maskanlardir. Bunday muzeylarga kirgan odam, go'yovaqt mashinasiga o'tirgandek, o'tmishga safar qiladi. Harbiy eksponat – o'z zamonining guvohi, har bir buyum – birtarixiy voqeaning sukutdagi hikoyachisi.

Qadimgi tangalar sizgamingi yillar avvalgi iqtisodiy hayot haqidano'zlasa, jangovar liboslar va qurollar esa buyuk janglar,

kurashlar va g'alabalar haqidagi hikoya qiladi. O'zbekiston da tarixiy muzeylar juda boy va xilma-xil. Ularning eng mashhur laridan biri bu – Temuriylar tarixidagi davlat muzeyidir. Bu maskan Amir Temur va uning vorislarining boshchiligidagi bunyod etilgan davlatchilik, madaniyat va ilm-fanning yuksak namunalarini ko'z oldingizda jonlantiradi. Muzey binosining sharqona me'morchilik uslubida qurilgan bo'lib, ichki bezaklari ham tarixiy mavzu ni chuqur aks ettiradi. Shuningdek, Afrasiyob muzeyi Samarqand tarixini sevuvchi har bir inson uchun mo'jizaviy joydir. U yerda topilgan devoriy suratlar, keramik buyumlar, qadimgi bitiklar orqali qadimiy Samarqand hayoti ko'z ongizda gavdalanadi.

O'zbekiston tarixidagi davlat muzeyi esa butun mamlakat tarixining har bir davrining bosqichma-bosqich namoyish etadi – tosh davridan boshlab, mustaqillik yillarigacha bo'lgan boy tarixiy merosni o'zida mujassam etadi. Bugungi kunda tarixiy muzeylar o'z faoliyatini yangi chayon dasturlar bilan olib bormoqda. Raqamlashtirish, 3D ko'rgazmalar, interaktiv ekranlar, audio gidlar va virtual ekskursiyalar orqali tarix yanada yaqinlashmoqda.

Endi muzeyga borish uchun ba'zan uyda o'tirgan holda internet orqali ham kirish mumkin. Bu esa yoshlar orasida tarixga qiziqishni yanada oshirayapti. Shubhasiz, tarixiy muzeylari yosh avlod uchun bebahom aqtabdir.

Chunki ularkitobda o'qilgan ma'lumotlarni amal dako'rish, his qilish va tushunish imkonini beradi. Tarixni bilgan, ajdodlar bilan faxrlangan, o'zildizini anglagan yosh avlodgina mustahkam vama'rifatli jamiyat qurishga qodir bo'ladi. Tarixiy muzey – bu oddiy bino emas. U – millatning ruhi, xalqning yodgorligi,

oʻtmishning tirik ovozi. Bu ovozning lagani son oʻzini anglatadi, oʻzligini qadrlaydi va kelajak sari yanada ishonch bilan qadam tashlaydi. Tarixiy muzeylar – xalqning madaniy xotirasi, milliy merosining tirik guvohlari. Ular orqali biz ajdodlarimizning qanday yashaganini, qanday kurashganini va qanday yutuqlarga erishganini anglaymiz. Harbiy oʻtmishni oʻrganib, kelajagi nongʻiravishda qura olish kerak. Tarixiy muzeylar faqatgina eksponatlari yigʻindisi emas – ular hayot sabogʻidir. Tarixiy muzeylar – bu oʻtmish bilan bogʻlaydigan koʻprikdir. Harbiy eksponat – bu tarixning tirik guvohi. Yoshavlod tarixiy muzeylarga tashrif buyurib, oʻz milliy oʻzligini, qadriyatlarini va ajdodlar jasoratini chuqur his qiladi. Harbiy urtdosh, ayniqsa yoshlar, tarixiy muzeylarni ziyorat qilib, “kim edik?”, “qanday yashadik?” va “qanday yutuqlarga erishdik?” degan savollarga javob topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar:

1. Oʻzb. 1. P. Karimov. I. A. (1997). Yuksak maʼnaviyat – yengil maskuch. Toshkent: Maʼnaviyat nashryoti.
2. Oʻzbekiston tarixi. (2020). Toshkent. „Oʻqituvchi“ nashryoti